

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## INGLIZ VA O‘ZBEK ERTAKLARIDAGI YETAKCHI OBRAZLARNING MILLIY TABIATI

**Shaxlo XALILOVA,**

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*Xorijiy tillar kafedrasida dotsenti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292441>

**Annotasiya.** *Ingliz va o‘zbek ertaklarida yetakchi obrazlar tasviri har bir xalqning milliy hamda madaniy turmush tarziga xos va mos tarzda badiiy ifoda etiladi. Bunda har ikkala millat vakillarining milliy va diniy e‘tibodiy qarashlari, o‘ziga xos marosimu urf-odatlari e‘tiborga olinadi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi yetakchi obrazlar tasvirida turli badiiy ifoda vositalaridan unumli foydalaniladi.*

**Kalit so‘zlar:** *yetakchi obrazlar, urf-odatlar, qahramonlar, g‘ayrioddiy xususiyatlar.*

**Аннотация.** *Образ главных героев английских и узбекских сказок художественно выражен специфично и соответствует национально-культурному образу жизни каждого народа. При этом учитываются национальные и религиозные взгляды персонажи, а также уникальные обрядовые традиции обоих народов. Также различные средства художественной выразительности эффективно используются при изображении главных героев английских и узбекских народных сказок.*

**Ключевые слова:** *главные герои, обычаи, герои, необычные черты.*

**Abstract.** *The image of leading characters in English and Uzbek fairy tales is artistically expressed in a way that is specific and appropriate to the national and cultural lifestyle of each nation. Although, the national and religious views of the leaders in the fairy tales of both nations, as well as their unique traditions means various of artistic expression that are effectively used as the leading characters in English and Uzbek folk tales.*

**Key words:** *leading characters, customs, heroes, unusual features.*

Ertakdagi yetakchi obrazlar inson, hayvon, qush, narsa kabi turli ko‘rinishlarda kelar ekan, syujet voqealari ularning maqsad va vazifasi bilan bog‘liq faoliyatiga muvofiq ifodalanadi. Shu o‘rinda “yetakchi obraz”, “bosh obraz”, “bosh qahramon” terminlarini farqlashga to‘g‘ri keladi. Bizningcha:

“yetakchi obraz” – xarakter-xususiyati, faolligi bilan ajralib turadi, syujet voqealari rivojida yetakchilik qiladi. Ertak nomi ham uning nomi bilan ataladi;

“bosh obraz” – boshqa obrazlarni o‘z atrofida jamlab keladi. Boshqa obrazlar bilan chambarchas bog‘liqlikda tasvirlanadi. Syujet voqea-hodisalari halqasini birlashtirishga xizmat ko‘rsatadi;

“bosh qahramon” – antropomorfik ko‘rinishda bo‘lib, jasorati, botirligi, aqlli va topqirligi bilan e‘tiborni tortadi. Voqealar talqini va tasviri uning xohish-irodasiga

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

muvofiq ifodalanadi. U epik raqiblarni (yalmog'iz, jodugar, maston, dev, ajdarho, jin va hokazo kabilarni) yengadi.

Yetakchi obrazlar jonli va jonsiz ko'rinishda bo'lishi mumkin: Jumladan, ertaklarda odam, ot, ayiq, bo'ri, qush va h.k. singari jonli; qilich, uzuk va boshqa turli jonsiz narsalar yetakchi obraz sifatida qo'llangan bo'ladi.

Bu borada dastlab ingliz ertakshunosi Djek Zayps fikriga e'tibor qaratildi. Uning fikricha, ertak obrazlari xuddi badiiy motivlar singari insonlarning ishonch-e'tiqodlari, orzulari asosida ular ongidagi fikrlar mahsuli sifatida paydo bo'lgan.[1] Olim “Irresistible Fairy Tale” asarida olim ertakning inson ongi, tafakkuri va bilish darajasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelganligini alohida ta'kidlaydi. Yana uning ta'kidlashicha, ertak butun dunyoga tarqalgan poligenetik madaniy artifakt”dir.[2]

A.N.Veselovskiy hamda V.Y.Propp ertaklarni motivlar bo'yicha o'rganish to'g'riligini ta'kilaydilar.[3] Bizningcha, ertaklardagi yetakchi obrazlarga qarab, ertak mavzu yo'nalishini ajratish mumkin.

Har bir yetakchi obraz ertaklarda o'z o'rni va badiiy-estetik vazifasiga ega. Uning o'rni ertakda bevosita shu vazifasi va badiiy talqin xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Ingliz xalq ertaklari yetakchi obrazlari tarkibi jihatidan boshqa xalqlar, jumladan, o'zbek xalq ertaklari bilan ham o'xshash, ham farqli tomonlarga ega. Shuningdek, xalq milliy mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari ham ertaklarda juda yaxshi namoyon bo'ladi. Masalan, cho'chqa obrazi ingliz ertaklarida bosh qahramon, yetakchi obraz sifatida ko'p uchraydi, ammo o'zbek ertaklarida bunday emas.

Ingliz ertaklarida cho'chqa yetakchi obrazlardan biridir. Bunga “Uchta kichik cho'chqacha” (“The Story of the Three Little Pigs”) ertagini misol qilish mumkin. Ushbu mashhur ingliz xalq ertagi quyidagi she'riy boshlanma bilan ibtido topgan:

Asliyatda	Tarjimada
Once upon a time when pigs spoke rhyme And monkeys chewed tobacco, And hens took snuff to make them tough, And ducks went quack, quack, quack, O!	Bir paytlar cho'chqalar qofiya bilan gaplashgan Va maymunlar tamaki chekishgan, Va tovuqlar zo'rg'a nafas olishgan, Va o'rdaklar kvok, kvok, kvok deb yurishgan Oh!

Aytilishicha, bir paytlar bir keksa dehqonning uchta cho'chqachalari bo'lgan ekan, ammo ularni boqish uchun hech narsasi yo'q ekan, shuning uchun u cho'chqachalarni o'z kunini ko'rishi uchun uydan chiqarib yuboribdi...

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Ertak tarjimasida tarjimon bir o‘rinda bo‘ri nutqida “cho‘chqa”[4] so‘zi o‘rnida “to‘ng‘iz” so‘zini ishlatgani ko‘rinadi. Garchi cho‘chqa va to‘ng‘iz so‘zlari ingliz tilida bitta “pig” so‘zi bilan ifodalansa-da, bizningcha, bu o‘rinda adekvat tarjimaga erishilmagan. Chunki cho‘chqa – go‘sht va yog‘ olish uchun boqiladigan juf tuyoqli, kalta oyoqli, yirik sut emizuvchi uy hayvoni. Uning yovvoyi va xonaki turlari bor. To‘ng‘iz yovvoyi cho‘chqa, qobon tushunchasini anglatadi. Holbuki, yuqoridagi ertakda yovvoyi cho‘chqa emas, bir dehqonning xonaki cho‘chqasi haqida gapirilgan. To‘ng‘iz so‘zi ko‘chma ma’noda tarbiya ko‘rmagan, nodon yoki vijdotsiz odamga nisbatan kinoya sifatida qo‘llanadi.[5] Shuningdek, ertak so‘nggida kichkina cho‘chqacha “kechki ovqat uchun bo‘rini yedi” deyilishi ham mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Chunki cho‘chqa go‘shtxo‘r jonivor emas.

O‘zbek xalq ertaklarida cho‘chqa obrazi yetakchi obraz sifatida ko‘p duch kelmadi. Bunda, bizningcha, xalqimizning diniy e‘tiqodi ta‘siri ham bor. Chunki musulmonlar orasida cho‘chqa go‘shti “harom” hisoblanadi va mutlaqo iste‘mol qilinmaydi. Shuning uchun “cho‘chqa” so‘zi o‘zbek tilida “ablah, hayvon” ma‘nolarida so‘kinch so‘z sifatida, kinoyada ishlatiladi.[6]

Ammo ingliz ertaklarida cho‘chqa go‘shti asosiy tansiq yeguliklardan biri sifatida alohida tilga olingani kuzatiladi. Jumladan, “Eshak, stol va to‘qmoq” (“The Ass, the Table, and the Stick”) kabi ertaklarning mavzuiy turlari yetakchi obrazlarga qarab ham farqlanadi. Masalan, ingliz sehrli ertaklarida qahramonlar g‘ayrioddiy xususiyatlarga ega qiyofada gavdalantiriladi.

Ingliz ertaklari qahramonlari ko‘pincha insonparvar, ko‘zi to‘q, nafsoniyatli, kamtarin, shuhratparastlikdan yiroq qilib ko‘rsatiladi. Ularning nutqida so‘zga chechanlik, hazilkashlik, kinoya aks etib turadi. Masalan, bunga “Uch ahmoq” (yoki “Uch savdoyi”) – “The Three Sillies” ertagi yetakchi obrazlarining nutqini misol qilish mumkin. Undagi bosh qahramonlar uchta aqlsiz insonning kulgili va ahmoqona ishlari haqida so‘z yuritiladi. Inglizlar fakt va dalil bilan gapirishni yaxshi ko‘rishadi. Bu esa ularning ertaklarida ham aks etib turadi. “Hatto sehrli ertaklar ham oddiy odamlar hayotidan oddiy hikoyalar sifatida beriladi, chunki hamma narsa haqiqatda sodir bo‘lganday batafsil tavsiflanadi”. [7]

Ma‘lumki, o‘zbek xalq ertaklari har doim yaxshilik va ezgulikning g‘alabasi bilan yakun topadi, ammo ingliz tilidagi ertaklar har doim ham bunday yakunlanmaydi. Ulardan ba‘zilari qayg‘uli va hatto shafqatsiz tugaydi. Masalan, “G‘aroyib surtma” (“Sehrli malham” yoki “Sehrli surtma” – “Fairly Ointment” ertagi bu jihatdan fikrimiz dalili bo‘la oladi. Unda ikkita yetakchi obraz keltirilgan. Biri

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

bemor kishilarga g‘amxo‘rlik qiluvchi hamda bolalarni zehni bo‘lishga o‘rgatuvchi hamshira Gudi xonim bo‘lsa, ikkinchisi g‘alati ko‘zli, kaltabo‘yli xunuk qariya. U kasal xotini farzand ko‘rayotganini va unga yordam kerakligini aytib iltimos qiladi. Gudi xonim keksa odamning ko‘rinishini yoqtirmasa-da, o‘z vazifasini bajarishi kerak edi, shuning uchun u narsalarini olib, uning bilan boradi... “Ko‘ryapman... Osmondagi yorqin quyosh kabi ko‘ryapman. Siz narsalarni o‘g‘irlash bilan bandsiz. Buni ham bilaman. O‘ng ko‘zim bilan ko‘raman”, – deydi faxrlanib. Shunda keksa qari o‘g‘ri unga “Bu o‘zingizga tegishli bo‘lmagan narsalarga aralashganingiz uchun, endi meni ko‘rmaysiz” degancha, ayolning o‘ng ko‘ziga qattiq zarba bilan uradi. Natijada Gudi xonim uni ko‘ra olmaydi. Bundan ham yomoni, uning o‘sha paytdan, to o‘lgunicha o‘ng tomonidagi ko‘zi ko‘r bo‘lib qoladi.

Ingliz ertaklari qahramonlarida ingliz kishisining xarakter-xususiyatini, orzu-intilishini, turmushi va madaniyati, dunyoqarashining tasvir va talqinini ko‘rish mumkin. Chunki har bir ertak milliy mentalitetning aksidir. Aytish mumkinki, ingliz ertaklarini tinglash va o‘qish orqali ingliz xalqi hayotiga sayohat qilinadi. Masalan, o‘zbek xalq ertaklarida hech qachon “ferma”, “fermer” kabi so‘zlar uchramaydi. Ular o‘rnida “dehqon” so‘zi qo‘llanadi. Lekin bu so‘zlar ingliz ertaklarida ko‘p uchraydi. Masalan, “Uch ahmoq” (yoki “Uch savdoyi”) – “The Three Sillies” ertagi quyidagicha boshlanadi:

<i>Asliyatta</i>	<i>Tarjimada</i>
<i>Once upon a time there was a farmer and his wife who had one daughter, and she was courted by a gentleman. Every evening he used to come and see her, and stop to supper at the farmhouse, and the daughter used to be sent down into the cellar to draw the beer for supper.</i>	<i>Qadimda bir dehqon va uning rafiqasi bo‘lib, ularning bitta qizlari bor ekan. Unga bir janob oshiq bo‘libdi. U har kuni kechqurun fermerning uyiga kelib uni ko‘rib turar, ular bilan kechki ovqatni yer, qiz esa janobga ovqat bilan ichishi uchun yerto‘laga tushib sharob olib chiqarkan.</i>

Ingliz ertaklarida yetakchi qahramonlar inglizcha antroponimlar bilan nomlangani ham ularga xos muhim belgilardan biridir. Masalan, Ser Uilyam, Jek, Guddi, Persi, Molli, Keyt, Bill, Ned, Mark, Tom, Jonni kabi va hokazo. Shuningdek, ularda Angliya, Britaniya, Shotlandiya, Irlandiya, Korobe Tinochi kabi va boshqa toponimlar ham uchraydi.

Angliya davlatchiligida Qirol yurti boshqaradi. U boshqargan yurt qirollik deb nomlanadi. “Qirol” so‘zi ingliz tilida “king”, “qirollik” “kingdom” deb yuritiladi. Qirol Artur va uning ko‘makchisi sehrgar Merlin timsollari ham ingliz ertaklaridagi yetakchi obrazlardan bo‘lib, uning milliy tabiatini belgilab ko‘rsatishga katta xizmat

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qiladi. Chunki bu obrazlar faqat ingliz ertaklariga daxldorligi, boshqa xalqlarning ertaklarida uchramasligi ayon. Masalan, ingliz xalq ertagi “Boshbarmoq Tomning tarixi”da qirol Artur nomi tilga olinadi va sehrigar Merlin yetakchi obrazlardan biri sifatida talqin qilinadi.

Shu ertakda inglizlarga xos “pudding” taomi ham tilga olingani e’tiborni tortadi. Tomning onasi pudding qilayotganida, Tom uning qanday tayyorlanishini ko‘rishni xohlabdi, idishning chetiga tirmashib chiqibdi-yu, ammo oyog‘i sirpanib ketibdi, boshi va quloqlari xamir ichiga botib qolibdi. Onasi Tomni payqamasdan, uni pudding idishi ichiga, idishni esa qaynatish uchun qozonchaga solibdi.

Ko‘rinadiki, bu o‘rinda puddingning xamirli va qaynatib pishiriladigan taom ekaniga ishora qilinmoqda. U etnografizm sifatida diqqatni jalb qiladi. Shuningdek, ertakda qo‘llangan qirol saroyidagi kaltabo‘y tomoshachi, aylana stol ritsarilari, obrazlari hamda Angliyaga xos penniy (pul birligi), kareta nomli ulov atamasi ham lingvokulturema sifatida ushbu ertakning milliy tabiatini belgilashga xizmat qilayotir.

“Chayld Roland” (“Childe Rowland”) ertagida [8] ham sehrigar Merlin obrazi keltirilgan. Bunda u bosh qahramonlarga xuddi o‘zbek xalq ertaklaridagi Xizr kabi maslahatchi, yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasida tasvirlangan. Ertakda bayon etilishicha, Chayld Roland ikki ukasi, singlisi Burd Ellen bilan koptok o‘ynab, uni tepganida koptok ibodatxonaga uchib tushibdi. Burd Ellen yo‘lak bo‘ylab aylanib koptokni qidiribdi, ammo ular qancha uzoq kutishsa ham u qaytib kelmabdi. Ular qizni sharqdan, g‘arbdan, tepadan, pastdan qidirishibdi, ammo qiz topilmabdi. Shundan so‘ng to‘ng‘ich aka sehrigar Merlin yoniga borib, singlisi Burd Ellenning qayerdaligini so‘rabdi...

Ingliz turmush tarziga xos isitish vositasi “kamin”, musiqa asbobi “arfa”, yegulik “pirog”, insonlarga murojaat so‘zlari ser, janob, xonim, ledi kabi. Bu jihatdan yuqoridagi ertakda qo‘llangan “pirog” so‘zi lingvokulturema sifatida e’tiborni tortsa, quyidagi ertakda erkaklarga nisbatan murojbat so‘zi sifatida ishlatiladigan “janob” so‘zi diqqatni jalb qiladi. Masalan, “Janob Vinegar” (“Mr. Vinegar”) ertagida keltirilgan inglizcha antroponimlar – Jek, Bill va Bob ismlari, ingliz pul birligi – funt atamasi qo‘llanayotgani ushbu ertakning bevosita inglizlarga aloqadorligini bildirib turadi. Ingliz ertaklarida elf, brauni, druidlar kabi mifologik va afsonaviy obrazlar yoki qalqonida dahshatli qanotli ajdaho tasvirlangan ritsar obrazi uchraydiki, ular o‘zbek xalq ertaklari uchun xos emas.

Eshak, stol va to‘qmoq (“The Ass, the Table, and the Stick”) ertagida ingliz xalqiga xos odatlardan biri obro‘ orttirgan shaxsni kishilarning bosh kiyimlarini otib

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

olqishlashi tasviri keltirilgan: “Tez orada shahar bo‘ylab Jek boylik orttirib qaytib kelgani ma’lum bo‘ldi va barcha qizlar unga bosh kiyimlarini otib minnatdorlik bildirdilar”.

G‘arb ertaklari, jumladan, ingliz ertaklarida raqs kechalari, (ballar) tasviriga alohida o‘rin ajratiladi. Ular yoshlarning o‘z baxtini topishiga sabab bo‘lishi ochib beriladi. Bunga “Zolushka”, “Sindrella”, “Hilpiroq shapkacha” (“Cap O’Rushes”) ertaklari syujetidan misollar keltirish mumkin. Ertaklarning milliy xususiyatini namoyon etishda ular uchun tanlangan yetakchi obrazlarning o‘rni alohida. Ular orqali xalqning milliy-ma’naviy, madaniy jihatlari badiiy aks ettiriladi.

Ertaklarning milliy xususiyatini namoyon etishda ular uchun tanlangan yetakchi obrazlarning o‘rni alohida. Ular orqali xalqning milliy-ma’naviy, madaniy jihatlari badiiy aks ettiriladi.

Ingliz sehrli predmetlar obraziga e’tibor qaratilsa, ularda g‘aroyib xususiyatga ega **uy-ro‘zg‘or buyumlari** (ochildasturxon, sehrli stol, qaynar xumcha, sehrli pichoq, sehrli qoshiq, sehrli idish, gilam, uchar supurgi va h.k.); **sehrli kiyim-kechaklar** (sehrli qalpoq, uchar etik, sehrli to‘n yoki sehrli palto; **g‘aroyib oziq-ovqat va ichimliklar** (non, bo‘g‘irsoq, suv); **sehrli meva**; (olma, shaftoli, olxo‘ri); **sehrli o‘simliklar, daraxtlar** (olma, yong‘oq daraxti, gullar, loviya, no‘xat); **sehrli hayvonlar va jonzotlar** (kiyik, sher, ayiq, bo‘ri tulki, ot, qurbaqa, ajdarho); **sehrli qush va parrandalar** (oltin g‘oz, oltin tojli xo‘roz, sehrli tuxum qo‘yadigan tovuq, kabutar, bulbuligo‘yo, Anqo, Semurg‘); **sehrli taqinchoqlar va bezak asboblari** (uzuk, oyna, taroq, sehrli hamyon); **sehrli qurol-yarog‘lar** (qilich, pichoq); **sehrli musiqa asboblari** (nay, rubob, doira, dudka, arfa, karnay); **sehrli mehnat qurollari** (urchuq, charx, qaychi, arra, bolta) va h.k.

Ko‘pgina xalqlar qatori inglizlarda **ajdar** ham yetakchi mifologik obrazlardan biridir. Sababi, inglizlar ajdarni o‘z homiysi, milliy g‘ururi timsolida qabul qilishgan. Shuning uchun ajdar rasmi mamlakat bayrog‘ida ham aks ettirilgan. Ingliz ertaklarida ajdah ko‘pincha epik ko‘makchi,[9] o‘zbek ertaklarida esa epik raqib timsolida keltiriladi. aniqrog‘i, ajdarho ko‘proq odamlarga kulfat keltiruvchi, odamlar yoki yemurg‘ bolalarining kushandasi sifatida tasvirlanadi.

“Jonni – keks” (“Jonny – cake”) ertagida bir chol va kampir hamda bir kichkina bola ertakning asosiy personajlari sifatida keltirilgan.

## “Jonni-keyk” ertagi elementlari

## Elements of Fairy Tales

		<i>Jonni-keyk</i>	<i>Jonny-cake</i>
<i>1</i>	<i>Ertakning boshlanishi</i>	<i>Bir paytlar ...</i>	<i>Once upon a time there was ...</i>

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

2	<i>Yaxshi xarakter</i>	<i>Chol, kampir va bola</i>	<i>an old man, and an old woman, and a little boy</i>
3	<i>Yomon xarakter</i>	<i>Tulki</i>	<i>fox</i>
4	<i>Sharoit, muxit</i>	<i>Dala</i>	<i>field</i>
5	<i>Muammo</i>	<i>Jonni-keyk qochib ketadi.</i>	<i>Jonny-cake get away</i>
6	<i>Qaytadan sodir bo‘lmoq</i>	<i>Qayta-qayta qochib ketadi</i>	<i>He gets away many times</i>
7	<i>Tugallanma</i>	<i>Tulki uni yeb qo‘yadi.</i>	<i>Fox eats him</i>

Ushbu ertakda Jonni keyk yetakchi obraz (bosh qahramon) bo‘lsa-da, hayoti fojia bilan tugaydi. Bunga esa uning quloqsiz va betartibliigi sabab bo‘ladi.

Har bir xalq ertagidagi kabi ingliz va o‘zbek ertaklarida bosh qahramonlar tasvirida ham milliylik aks etib turadi. Masalan, bu ulardagi go‘zal qizlarning ta’rif-tavsifida ham ko‘rinadi:

<i>Ingliz “Qizil atirgul” (“The Rose Tree”) ertagida</i>	<i>O‘zbek “Vijdonli yigit” ertagida</i>
<p><i>Qizning yuzi sutdek oppoq, lablari gilosdek qip-qizil, sochlari esa oltindek tovlanib yerga sudralib turarkan.</i></p> <p><i>“Guleyesh” ertagida fransuz malikasi:</i></p> <p><i>Dunyodagi eng go‘zal turganini ko‘rdi. Uning yuzlarida chiroyli atirgullarning timsoli bor edi, qo‘llari ingichka, lablari qulupnoydek qizil, oyoqlari kichkina, qomati yengil va juda ixcham, sochlari esa oltindek tovlanar edi. Uning egnidagi liboslari oltin, kumush va yorqin qimmatbaho toshlar bilan qoplangan.</i></p>	<p><i>Qarasa, oy desa – oy, kun desa – kunded yuzi bor, qirq kokili beliga tushgan chiroyli qiz ekan.</i></p> <p><i>Yoki: “Uch avliyo” ertagida:</i></p> <p><i>Mayda qilib o‘rilgan qirq kokili to‘pig‘ini o‘parmish. Qiz tilladan bo‘lgan dutorini mashq qilib, labini tishlab, biqinini ushlab, saqichini «qars-qurs» chaynab turib: – Qani, oralaringda biz bilan garov o‘ynaydigan mard bormi? – debdi. Kenja botir” ertagida: O‘tgan zamonda bir podshoning qizi bor ekan. U vazirning Qorasochxon degan go‘zal qizi bilan birga maktabda o‘qir ekan. Bir qiz: oy desa og‘zi, kun desa ko‘zi bor, nihoyatda go‘zal.</i></p>

Ko‘rinyaptiki, ingliz ertagida qizning sariq soch ekani, o‘zbek ertagida esa qizning qora sochligi bildirilmoqda. Shu asosda ham ikkala xalq ertagining milliy tabiati ko‘rsatib berilmoqda. Bunda badiiy tasvir vositalari (epitet, tashbeh, tashxis, mubolag‘a kabilardan) har bir xalqning milliy mental xususiyatlaridan kelib chiqib foydalanilgan. Ingliz va o‘zbek ertaklaridagi yetakchi obrazlarning milliy tabiatidan kelib chiqib, badiiy vazifalarida goh mushtaraklik, goh o‘ziga xoslik kuzatiladi

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

hamda aksariyat yetakchi obrazlar badiiy vazifasi jihatidan o‘xshashligi, vazifadoshligi ayonlashadi.

Ingliz va o‘zbek ertaklaridagi yetakchi obrazlar har ikkala xalqning yashash joyi, ular yashaydigan hudud flora va faunasidan kelib chiqib tasvirlanishi kuzatiladi, ular garchi turli tizimli tillarda yaratilsa-da, yetakchi obrazlarni badiiy tasvirlash prinsiplari ko‘pincha mushtarakligi kuzatiladi. Ertaklar xalq qarashlari, orzu-istak va intilishlari asosida mehnatkash xalq manfaatlariga mos tarzda ideallashtirilgan.

## Adabiyotlar:

1. Zipes J. Why Fairy Tales Stick. The Evolution and Relevance of a Genre. – New York: Routledge, 2007. – P.15.
2. Zipes J. The Irresistible Fairy Tale. – New York: Routledge, 2007. – P.25
3. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Наука, 1989. – С.301; Пропп В. Морфология волшебной сказки. – Москва:Азбука-Аттикус, 1986. – С.11.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik. 4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.527.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik. 4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.240
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik. 4-tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.527.
7. <https://moscsp.ru/uz/vse-angliiskie-skazki-skazki-na-angliiskom-yazyke-s.html>